

O'ZBEKISTONDA SAYLOV JARAYONLARIDA GENDER TENGLIGI: HUQUQIY ASOSLAR VA AMALIY NATIJALAR

Xalikova Rahbar Ergashevna

Tarix fanlari doktori, professor,
I.Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
@tdtu.uz rahbarkholikova@mail.ru
<https://doi.org/10.5281/zenodo.18771979>

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida keyingi yillarda amalga oshirilayotgan saylov islohotlari jarayonida gender tenglikni ta'minlash masalalari tahlil qilinadi. Prezident va parlament saylovlari misolida xotin-qizlarning siyosiy jarayonlardagi ishtiroki, xalqaro tajriba bilan uyg'unlik, konstitutsiyaviy kafolatlar hamda 2030 yilga qadar gender tenglikka erishish strategiyasining ahamiyati yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: saylov qonunchiligi, gender tengligi, xotin-qizlar ishtiroki, parlament, konstitutsiya, strategiya.

Annotation

This article analyzes the issues of ensuring gender equality in the context of electoral reforms implemented in recent years in the Republic of Uzbekistan. Using the examples of presidential and parliamentary elections, the participation of women in political processes, alignment with international experience, constitutional guarantees, and the importance of the Strategy for Achieving Gender Equality until 2030 are examined.

Keywords: electoral legislation, gender equality, women's participation, parliament, constitution, strategy.

Аннотация

В данной статье анализируются вопросы обеспечения гендерного равенства в процессе избирательных реформ, проводимых в последние годы в Республике Узбекистан. На примере президентских и парламентских выборов рассматривается участие женщин в политических процессах, их соответствие международному опыту, конституционные гарантии, а также значение Стратегии достижения гендерного равенства до 2030 года.

Ключевые слова: избирательное законодательство, гендерное равенство, участие женщин, парламент, конституция, стратегия.

Demokratik davlat barpo etishda saylov tizimining adolatli va inklyuziv bo'lishi muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi keyingi yillarda o'z saylov qonunchiligini takomillashtirishda jahon demokratik davlatlari tajribasida sinovdan o'tgan ilg'or yo'nalishlarni tanlab, milliy amaliyotga izchil joriy etib kelmoqda. Bu jarayonda gender tenglik masalasi alohida ustuvorlik kasb etmoqda. Ayniqsa, xotin-qizlarning siyosiy jarayonlarda, jumladan saylovlarda faol ishtirokini ta'minlash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

O'zbekiston keyingi yillarda o'zining saylov qonunchiligi uchun butunjahon demokratik davlatlari saylov qonunchiligining eng ustivor yo'nalishlarini tanlab oldi va amaliyotga tadbiiq etib kelmoqda. Bu jarayonni respublikamizda o'tkazilgan Prezident saylovida hamda parlament saylovlarida ko'rishimiz mumkin. Respublikamizda o'tkazilgan saylovlarda gender tengligi ustivor yo'nalishga aylandi. Yurtimizda bo'lib o'tayotgan saylov jarayonlarini tashkil

qilish va o'tkazishda ,nomzodlarni ko'rsatishda ayollarning o'rni sezilarli darajada oshganini ko'rishimiz mumkin.

O'zbekistonga saylov jarayonlarini kuzatishga kelgan Gdansk universiteti professori **MALGOZATA STVOL** O'zbekiston saylovlarida gender tengligi ustuvor ekanligini ko'rib o'z fikrlarini bildirgan. Bunda O'zbekistondagi o'zgarishlar xorijiy davlatlar qonunchiligiga ham to'liq muvofiq kelishi Belgiya, Gretsiya, Gruziya, Irlandiya, Italiya, Qozog'iston, Moldova, Mongoliya, Portugaliya, Fransiya kabi xorijiy davlatlar saylov qonunchiligida ham xotin –qizlar uchun deputatlik ro'yxatlarini shakllantirishda muayyan kvotalar belgilanganligi haqida to'xtalib o'tadi.

U o'z fikrini davom ettirib, hozir O'zbekiston Parlamentida ayollar 32 foizni tashkil qiladi. Bu e'tiborga molik, ammo qolgan bo'shliqlarni yopish uchun qo'shimcha islohotlar zarur deb o'ylayman.

Ayollarning siyosatda faol qatnashishi siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonida fikrlar xilma-xilligini keltirib chiqaradi. Bu esa, ayniqsa, ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy farovonlik sohalarida ijobiy o'zgarishlarga yo'l ochadi.

Ayollarning ishtiroki demokratiyani kuchaytiradi, boshqaruvni yaxshilaydi va inklyuziv jamiyatni yaratishga hissa qo'shadi. Butun dunyo tanigan o'zbek ayollari safi yanada kengayishini istayman. Ayollarni rahbarlik roliga qo'yish orqali yanada kuchli va farovon mamlakatni barpo etish mumkin [1].

BMT ma'lumotlariga ko'ra, ayollar dunyodagi barcha ishlarning 60-70 % ini amalga oshiradi. Ularning mehnati bilan dunyoda mahsulotlarning 45 foizi ishlab chiqariladi. Ko'rinib turibdiki, ayollarning mamlakat hayotidagi ishtirokini cheklab qo'ysak, insoniyatning teng yarim mahoratini yo'qotgan bo'lamiz. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, jamiyat taraqqiyotida xotin-qizlar katta salohiyatga ega bo'lgan kuch hisoblanadi. Xususan, bu borada Xitoy: "Ayol-insoniyatning rivojlanishida qudratli kuch va usiz rivojlanishda zafar qozonib bo'lmaydi", degan fikrda [2].

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda saylov jarayonlarida gender tenglikni ta'minlash borasida salmoqli natijalarga erishilgan. Xususan: mamlakatimizda 2024 yil 27 oktyabrda bo'lib o'tgan saylovlar natijasida O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Qonunchilik palatasiga saylangan deputatlarning 38 foizini xotin-qizlar tashkil etdi. Bu O'zbekiston respublikasi tarixida misli ko'rilmagan voqeya bo'ldi.

Shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyat, Toshkent shahar va tuman (shahar)lar Kengashlariga saylov natijalariga ko'ra mahalliy Kengashlar tarkibiga yangi saylangan deputatlarning 32,6 foizi xotin-qizlarni tashkil qildi.

Ushbu samaralarga, hech shubhasiz, yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining sharofati bilan erishildi. Chunki Asosiy Qonunimizning 58-moddasida: "Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar. Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek, jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlaydi", deb belgilangan.

Mazkur konstitutsiyaviy kafolatlar bugungi kunda hayotimizning barcha sohasida o'z ijobatini topmoqda. Xususan, shu asosda Saylov kodeksiga kiritilgan o'zgartirishlarga ko'ra endilikda xotin-qizlar siyosiy partiyalar tomonidan ko'rsatilgan deputatlikka nomzodlar sonining kamida 40 foizini tashkil qilishi shart. Avval bu talab bo'yicha ko'rsatkich 30 foiz edi.

Bunday muhim talab yaqinda bo'lib o'tgan saylovlarda ishtirok etgan ayol nomzodlar soni izchil ko'payishiga turtki berdi. Shunga yarasha natija ham, ta'bir joiz bo'lsa, yurtimizda gender siyosati doirasida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy mavqeyini mustahkamlash bo'yicha amalga oshirilayotgan jadal islohotlar mohiyatiga mos darajada bo'ldi [3].

2030 yilga qadar O'zbekiston respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi qabul qilindi.

Ushbu tarixiy hujjat O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 2017 – 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan mamlakatni rivojlantirishning ustuvor vazifalari, hamda 2030 yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsadlar va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan. Unda gender tenglikni ta'minlashning asosiy tamoyillari qatorida qonuniylik, demokratiya, ochiqlik va oshkoralik prinsiplari belgilangan [4].

Gender strategiyaning asosiy maqsadi – irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat'iy nazar xotin-qizlar va erkaklarning haqiqiy tengligini ta'minlashdan iboratdir.

Gender strategiyasini amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlari:

-Saylov huquqlarini amalga oshirishda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash;

-Davlat xizmati sohasida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng –huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash;

-Ta'lim,ilm–fan, sport hamda sog'liqni saqlash sohasida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash;

-Ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash;

-Oilaviy munosabatlar hamda bolalar tarbiyasi sohasida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash va boshqalar [5].

Bugungi kunda 2030 yilga qadar O'zbekiston Respublikasi gender tenglikka erishish strategiyasi hayotga keng tatbiq etilmoqda. Gender tenglikka erishish strategiyasini 2025 yilda amalga oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturidan istiqboldagi yanada muhim masalalar o'rin olgani, ayniqsa, e'tiborga loyiq. Ayni shu dasturiy hujjatlar ijrosi doirasida, jumladan, xotin-qizlarning ta'lim olishiga qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish, ilm-fan sohasida ayollarning o'rnini yanada oshirishga katta e'tibor qaratilyapti.

Joylarda imtiyozli kreditlar va lizing ajratish, xotin-qizlarni ishga jalb qilgan holda kooperatsiya usulida tadbirkorlikni yo'lga qo'yish masalalari doimiy diqqat markazida turibdi. Ayniqsa, "ayollar daftari"ga kiritilgan va jarrohlik amaliyoti o'tkazishi lozim bo'lgan xotin-qizlarning tibbiy muolaja xarajatlarini qoplab berishdek ezgu amallar izchil bajarilmoqda.

Bularning barchasi gender tenglik masalasi O'zbekistonda davlat siyosati darajasiga ko'tarilganining o'ziga xos isbotidir. Mamlakatimiz xotin-qizlarni kamsitish va ta'qib qilishning barcha shaklidan huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy himoya etishni nazarda tutuvchi xalqaro shartnomalarga qo'shildi [6].

Shuningdek, strategiyada gender tenglikni ta'minlash tadbirlarini hisobga olgan holda davlat dasturlarini byudjetlashtirish va moliyalashtirish har ko'zda tutilgan.

Gender strategiyasini amalga oshirishdan yana ham salmoqli natijalarga erishish kutilmoqda. Xususan, yuqori va quyi tizimdagi davlat organlarining rahbarlik lavozimlariga xotin-qizlarni tayinlash amaliyotini kengayadi. Gender nomutanosiblik mavjud bo'lgan davlat organlarida vaqtinchalik kvotalash tizimini joriy qilish orqali xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi mutanosiblik ta'minlanadi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj va kam ta'minlangan, ayniqsa qishloq joylaridagi oilalardagi xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash, munosib mehnat sharoitlarini yaratish va ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlarining samaradorligini oshirish, shuningdek o'zini o'zi band qilishga erishiladi. Eng asosiysi – xotin-qizlarga nisbatan ish joylaridagi tazyiq va zo'ravonlik holatlarining oldi olinib, jamiyatda xotin-qizlarga nisbatan shakllangan salbiy qarashlarga barham beriladi [7].

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasida saylov jarayonlarida gender tenglikni ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlar sezilarli natijalar bermoqda. Xotin-qizlarning parlament va mahalliy Kengashlardagi ulushi tarixiy darajada oshdi. Bu esa demokratik boshqaruvni mustahkamlash, inklyuziv jamiyat barpo etish va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda muhim omil hisoblanadi. Kelgusida ham gender siyosati doirasida amaliy chora-tadbirlarni izchil davom ettirish O'zbekistonning xalqaro nufuzini yanada oshirishga xizmat qiladi.

References:

1. <https://new.hudud24.uz/news/uzbekiston-sailovlarida-gender-tengligi-ustuvor-gdansk-universiteti-professor>
2. Гаффорова М. Ўзбекистон ижтимоий-сиёсий ҳаётида хотин-қизлар мавқеи. Тошкент, Янги китоб, 2017. 223 бет.
3. G'afforova M. O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy hayotida xotn-qizlar mavqeyi. –Toshkent, Yangi kitob, 2017. 223 bet.
4. <http://nhrc.uz/uz/news/m14347>
5. <https://ombudsman.uz/uz/docs/ozbekistonda-olib-borilgan-gender-siyosati-inson-huquqlari-kafolatlanishining-muhim-mezoni>
6. <https://arxiv.uz/ru/documents/slaydlar/huquqshunoslik/gender-tengligi-va-ael-u-ularini-imoya-ilish>
7. <http://nhrc.uz/uz/news/m14347>
8. <https://ombudsman.uz/uz/docs/ozbekistonda-olib-borilgan-gender-siyosati-inson-huquqlari-kafolatlanishining-muhim-mezoni>.